

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 1(575.1):129.3

YA'QUB CHARXIY TA'LIMOTIDA BORLIQ NAZARIYASI

ТЕОРИЯ СУЩЕСТВОВАНИЯ В УЧЕНИИ ЯКУБА ЧАРХИ

THE THEORY OF EXISTENCE IN THE TEACHINGS OF YAKUB CHARKHI

Zoyirov Erkin Xalilovich 

Buxoro davlat texnika universiteti professori, falsafa fanlari doktori(DSc).

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ya'qub Charxiyning borliqqa oid falsafiy-metafizik qarashlari uning "Risolai qudsiya", "Risolai huroiyya" va "Sharhi Asmou-l husna" kabi asosiy asarlari asosida har tomonlama tahlil etilgan. Mutasavvifning borliq haqidagi talqinlari tasavvuf metafizikasining eng teran qatlamlarini ochib berib, unda ilohiy tajalli, mavjudotning ruhiy mohiyati va insonning kamolot sari ruhiy sayri o'ziga xos tarzda yoritilgan. Ya'qub Charxiy vahdat ul-vujud ta'limotini Bahouddin Naqshbandning ruhiy-ma'naviy konsepsiyalari asosida davom ettirib, uni Ibn Arabiy maktabining chuqur metafizik g'oyalari bilan qiyosiy tahlil etadi.

Аннотация

В данной статье всесторонне раскрыты философско-метафизические взгляды Якуба Чархи на бытие на основе его основных трудов - «Рисолаи кудсия», «Рисолаи хуруйя» и «Шарх Асмауль-хусна». Интерпретация бытия у мыслителя раскрывают самые глубокие слои суфийской метафизики, в которых своеобразно освещаются божественные проявления, духовная сущность существования и пути духовного восхождения человека. Якуб Чархий, продолжая духовно-нравственные концепции Бахауддина Накиббанда, развивает учение о вахдат ал-вуджуд и сопоставляет его с метафизическими идеями школы Ибн Араби.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of Ya'qub Charkhi's philosophical and metaphysical views on existence, based on his major works - "Risāla-yi Qudsiyya", "Risāla-yi Hurū'iyya" and "Sharḥ Asmā' al-Ḥusnā". The mystic's interpretation of existence reveals the deepest layers of Sufi metaphysics, shedding light on divine manifestations, the spiritual essence of being, and the stages of the human journey toward spiritual perfection. Ya'qub Charkhi, following the spiritual and ethical principles of Bahā'uddin Naqshband, further develops the doctrine of waḥdat al-wujūd and compares it with the profound metaphysical ideas of Ibn 'Arabi's school.

Kalit so'zlar: borliq, vahdat ul – vujud, boqiy va foniy, abadiy va o'tkinchi, vaqt, tajalli, tavid.

Ключевые слова: онтология, вахдат ул-вужуд, постоянное и преходящее, временное и вечное, время, тажалли, тавхид.

Key words: ontology, vahdatul-vujud, constant and transient temporary and eternal, consealed and evidend, time, tagallia, tawheed.

KIRISH

Insoniyat tafakkuri tarixida borliq, uning mohiyati va Haqiqatning asl manbai haqida berilgan savollar eng qadimiy, eng murakkab va eng teran falsafiy mavzulardan hisoblanadi. Xususan, Sharq tasavvuf tafakkuri ushbu savollarni nafaqat aql, balki ruhning ichki kashfiyotlari orqali yoritishga intilib, insonning Haqiqat sari yo'lini metafizik, ma'naviy va ruhiy qatlamlarda talqin qilgan. Ana shu buyuk ruhiy makon ichida XV asrning yirik sufiy mutafakkiri Ya'qub Charxiy o'zining betakror ilmiy-ma'rifiy merosi bilan alohida o'rin egallaydi. Uning borliq haqidagi talqini nafaqat tasavvuf falsafasining mohiyatini boyitadi, balki insonning mavjudot bilan munosabatini o'ziga xos ruhiy-ontologik nuqtayi nazardan anglash imkonini beradi. Ya'qub Charxiy nazarida borliq – bu oddiy mavjudot tushunchasi emas, balki ilohiy Haqiqatning darajama-daraja tajallisi, insonning ruhiy o'sishi va koinotning ma'naviy me'morchiligi o'rtasidagi uyg'unlikdan tarkib topgan yuksak manzara. U borliqni tanlash, idrok etish, anglash va unga yaqinlashish jarayonlarini insonning ichki kamolot yo'li sifatida sharhlaydi. Charxiy fikricha, Haqiqatning jilvasi inson qalbida aks etganda, koinotning o'zi ham boshqa bir rangda namoyon bo'ladi; borliq esa ruhning oyinasida ochiladigan bitmas-tuganmas ilohiy tajallidir. Bu yondashuv tasavvuf falsafasining eng teran qatlamlaridan biri - vahdat ul-vujud konsepsiyasini o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, Charxiy uni inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq holda, o'zining nozik ma'rifiy uslubi bilan boyitgan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv, axborot oqimlarining keskinlashuvi va ruhiy beqarorlik kuchaygan bir davrda insonning mohiyatini anglash, uning ruhiy mustahkamligini va ichki uyg'unligini tiklash masalalari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'qub Charxiy ta'limotidagi borliq nazariyasi esa aynan shu masalalarga javob topishda bebaho manbaa hisoblanadi. Uning qarashlari zamonaviy falsafada muhokama qilinayotgan insonning mavjudotdagi o'rni, ruhiy kamolot konsepsiyalari, ma'naviy uyg'unish va ontologik barqarorlik masalalari bilan uyg'unlashadi.

Charxiy ta'limotini o'rganish nafaqat tasavvuf falsafasining tarixiy ildizlarini ochib beradi, balki bugungi jamiyatdagi ruhiy-ma'naviy ehtiyojlarga ham javob beradi. Chunki uning borliq haqidagi qarashlari insonni o'zini tanishga, o'z mohiyatini anglashga va Haqiqat sari intilish orqali ma'naviy etuklikka erishishga chorlaydi. Shuning uchun ham Ya'qub Charxiy ta'limotidagi borliq nazariyasini chuqur ilmiy tahlil qilish, uni zamonaviy falsafiy yondashuvlar bilan qiyoslab ko'rish va tasavvuf metafizikasining rivojida tutgan o'rnini aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy vazifasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ya'qub Charxiy merosi bo'yicha mavjud adabiyotlar asosan tasavvuf falsafasi, Naqshbandiya tariqati hamda Markaziy Osiyo islom tafakkuri tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Uning borliq haqidagi qarashlari, avvalo, Mir Sayyid Burhoniddin, Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy va Bahouddin Naqshband maktabi vakillarining asarlarida umumiy konseptual yondashuvlar doirasida sharhlanadi. Xususan, Jomiyning "Nafahot ul-uns", Alisher Navoiyning tasavvufiy risolalari, Ibn Arabiy, Sadriddin Qunaviy va Davoniylarning ontologik qarashlari Charxiy ta'limotini tushunishda asosiy manbaviy ildiz vazifasini o'taydi.

Hozirgi zamon tadqiqotchilari – A. Knysh, W. Chittick, A. Bertelsen, M. Amin Razavi, O. Bobokalonov, H. Nurmatov, Z. Mamatov va boshqalar Charxiy tafakkurining borliq konsepsiyasida vahdat ul-vujud, ilohiy haqiqat, mavjudot zanjiri hamda insonning ruhiy kamolot yo'li qanday talqin qilinganini chuqur ilmiy tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida Charxiy qarashlari tasavvuf metafizikasining umumiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq holda talqin qilinadi, ammo uning borliq haqidagi individual yondashuvlari hanuz to'liq o'rganilmaganligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, tarixiy manbalarda Ya'qub Charxiyning asarlari – "Risolai Azizon", "Maktubot", "Sharh-i ruboiyot" kabi risolalarida borliqning mohiyati, yo'qlikdan borliqqa o'tish jarayoni, Haqiqat va koinot nisbatiga doir fikrlar quyma, murakkab va ramziy uslubda berilgan. Zamonaviy adabiyotlar esa ushbu g'oyalarning falsafiy mohiyatini ochib berish, ularni tasavvufning boshqa vakillari bilan qiyoslash va hozirgi davr ontologik muammolari bilan bog'lashga intiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar Charxiy borliq nazariyasining umumiy konturlarini ochib berishiga qaramay, uning ontologik tizimini yaxlit falsafiy konsepsiya sifatida tahlil qilish, asosiy kategoriyalarni (borliq–yo'qlik, Haqiqat–koinot, substansiya–sifat, inson–ruhiy martaba) ilmiy asosda qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur mavzuni ilmiy asosda tadqiq etishda bir nechta metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanish zarur. Avvalo, tarixiy–falsafiy tahlil metodi Charxiy yashagan davr, uning intellektual muhiti va Naqshbandiya tariqatining ma'naviy-falsafiy muhitini chuqur o'rganish imkonini beradi. Ushbu metod uning g'oyalari qanday tarixiy sharoitda shakllanganini aniqlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy tahlil talablari asosida interdisiplinar yondashuv ham qo'llanilishi mumkin. Bu yondashuv tasavvuf falsafasini antropologiya, psixologiya, metafizika va dinshunoslik doirasida ko'rib chiqishga imkon beradi. Natijada, Charxiy o'z zamoni uchun yaratgan borliq haqidagi tasavvurlarni bugungi falsafiy fikrlar bilan bog'lash, ularning dolzarbligini asoslash va yangi tahliliy xulosalar keltirib chiqarishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tasavvufda borliq, vujud tushunchasi sifatida keladi va uni izohlashda vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi sifatida yoritilgan. Mazkur nazariyalar ham falsafiy, ham irfoniylar asoslarga tayanadi.

Vahdat ul – vujud (borliqning bir butunligi) - abadiy yagona Allohgina bor, moddiy olam esa ro'yo deb hisoblovchi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, moddiy olam va narsalar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning tajalliysidir, shu'lasidir. Ushbu ta'limot tasavvufdagi eng munozarali mavzulardandir.

Vahdat ul - vujud nazariyasining ko'proq qadimgi Yunonistonda Aflotun (m.a.427-347yy), Flutin (m.a.270-204yy) qarashlari bilan umumiyliigi bor.

Aflotun (Platon) butun dunyo haqiqiy borliqning, ya'ni "g'oyalar dunyosining" mahsuli, soyasidir, deb ta'limot bersa, Flutin (Plotin) haqiqatni bitta va birlikni butun borliqning asli va asosiy manbai deb tushunadi. Uningcha, barcha mavjudot o'sha birinchi mabda (boshlang'ich joy, nuqta) dan sizib chiqib, nihoyatda unga qaytib boradi.[1]

Abu Nasr Forobiy ilk marotiba "vujud", "vujudi vojib" (vojib ul-vujud) va "vujudi mumkin" (yaratilgan vujud) kabi keyinchalik Vahdat ul-vujud falsafasida keng qo'llanilgan atamalarni falsafiy kategoriyalar darajasiga ko'tardi.

"Vujud" haqidagi bahslar ahli sunna val jamoa e'tiqodiga ergashuvchi ash'ariy mutakallimlardan boshlanadi. Ular "Vujud" bilan bog'liq tushunchalarni quyidagicha izohlaganlar:

1. Vojib ul-vujud – Alloh taolo mavjudligining zarurligi.

2. Mumkin ul-vujud – "Mumkin" sanalgan vujudlarni Alloh yaratmasa ham bo'lardi, ammo yaratdi.

3. Mumtane' ul-vujud – mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan vujud. Ya'ni, Allohning sherigi mavjud bo'lishi mumkin emas.[2]

Naqshbandiya tariqatining mashhur namoyandasi Ya'qubi Charxiy risolalarini tahlil qilganimizda, ayniqsa, vahdat ul-vujud falsafiy nazariyasini o'zining xos uslubi asosida izohlaydi. Mutasavvifning risolalarining tasnifi ko'rsatadiki, u borliqqa umumiy ta'rif berish bilan birga uning ko'rinishlari bo'lgan tabiat, inson, jamiyat va ma'naviy borliqni ham tahlil etgan.

Ibn Arabiy tavhid deb vahdat ul-vujudni tushunadi. Mutasavvif "Lo mavjuda illalloh" (Allohdan o'zga mavjud yo'q) va "Lo iloha illalloh" (Allohdan o'zga iloh yo'q) o'rtasida farq yo'qligini ta'kidlaydi,[3].

Ya'qubi Charxiy "Risolai havroiyya" (Hurlar risolasi) da "faqatgina Sening samadiyatingga muyassar bo'laylik. Zero hamma Sendandir. Bizning talabimizni botinlarimizga ber. "La ilaha illalloh" ning barakatidan nafsoniy istaklar va shaytoniy vasvasalarni bizdan uzoq qilki, barcha oriflarning istagi shudir" – deb, Hakim Sanoiy G'aznaviyning quyidagi baytini keltiradi:

"Illalloh" ning maydonida "La ilaha" tig'i bilan

Allohdan boshqa nima bo'lsa, hammasini qurbon qildilar,[4].

Mutasavvif vujudga oid vahdat, ittihad, saodat, shaqovat, vasl kabi tushunchalarni quyidagicha tahlil qiladi: "Agar sendan, vahdat nima, deb so'rasalar, dilni Haq subhonahuning borligiga g'arq bo'lishdir"[5] - deydi. "Vahdat" so'zi birlik va bir bo'lish ma'nosini ifodalaydi. "Vujud" esa "borliq" ma'nosini anglatadi. Vahdat ul - vujud ta'limotida borliq jamodot (jonsiz va harakatsiz qattiq jismlar), o'simliklar, hayvonlar, osmonlar va falakka bog'liq bo'lgan narsalargacha hammasi bir vujud hisoblanadi.

Ya'qubi Charxiy Al-Mu'id (Barcha yo'q bo'lib ketganlarni yo'qlikdan qaytaruvchi), Al-Muhyi (tanaga jonni, qalbg'a iymonni solib tiriltiruvchi Zot), Al-Qayyum (hamisha bor bo'lgan va cheksiz mulk egasi va hamma Unga muhtoj bo'lgan, U esa hech narsaga muhtoj bo'lmaydigan Zot) sifatlarini tasavvufiy tahlil qilib, orifning bu ismlardan shuni anglashi kerakki tirikliklikda qilib yurgan ishlaridan qayta tiriladigan kunda ahvoli qanday bo'lishini solishtirsin, Undan o'zgadan yuz o'girsin va butun vaqtini Uning hazratiga to'liq yuzlanishga sarflasin, Uning yo'lga qoyim bo'lsin va bu yo'ldan chetlashganlarni to'g'ri yo'lga solsin,[6].

Bu haqda Ibn Arabiy Yaratuvchining yakalligiga ishora qiluvchi zotiy sifatleri bilan Unga hamd aytib, yakka va bitta mazmunini ifoda etuvchi "vahdoniyat", "fardoniya" kabi ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarni alohida tahlil qilgan:

"Vahdoniyatidan oldin O'zidan o'zga hech bir oldinlik bo'lmagan, har qanday oldinlik O'zi bo'lgan va fardoniyaatidan keyin O'zidan o'zga hech bir keyinlik bo'lmagan, har qanday keyinlik O'zi bo'lgan Allohga hamdlar bo'lsin",[7].

Ya'qubi Charxiy fikricha "agar sendan, ittihad nima, deb so'rasalar Haq subhonahuning boshqa narsani bilimidan xolos qilishdir" – degan xulosani beradi. Ittihad (arab. - birlashish) bo'lib, sufiyning jazabada tushish holatida Xudo bilan ruhan "qo'shilib ketishi" tushuniladi. Sufiylar Xudo bilan muhabbat (ishq) ni ittihadning zaruriy qismi deb qaraydi. Ittihad turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Sunniy tasavvuda ittihad qat'iy rad qilingan.

Mutasavvif "agar sendan, saodat nima, deb so'rasalar, Haqni ko'rish va o'zidan xalos bo'lish" – degan fikrni beradi.

Naqshbandiya tariqati nazariyotchisi Maxdumi A'zam yozadiki; "Bidan ey tolibi sodiq, ki hama saodatho va davlatho dar maqomi fanovu nesti hast. Rafitorihovu besaodatho dar vujudi hasti ast",[8].

Mazmuni: "Ey sodiq tolib, bilgilki, barcha saodat va davlatlar fano, ya'ni yo'qlik maqomidadir. Sargardonlik va saodatsizlik, ya'ni badbaxtlik borliq vujudidadir". Bu erda oraziy, majoziy, o'tkinchi vujud asl vujud, haqiqiy, boqiy, sarmadoniy vujudga g'arq bo'lib, yo'q bo'lgan bo'lsa, fano maqomiga etsa ikki olam saodatiga etadi, degan fikr yotadi.

1.Haqiqiy, boqiy, sarmadiy vujud. Sarmadiy – doimiy, abadiy ma'nosini anglatadi. Haqiqiy, boqiy, abadiy, doimiy vujud Haq subhana va taolo vujudidir.

2.Oraziy, majoziy, foni vujud. Oraz - arab so'zi bo'lib, ko'rinish, namoyon bo'lish ma'nolarini anglatadi. Falsafada aksidensiya ma'nosini anglatadi. Majoziy – haqiqatning aksi. Foni - o'tkinchi deganidir. Oraziy, majoziy, foni vujud - ko'rinadigan, yuzada bor, lekin haqiqiy bo'lmagan, o'tkinchi vujud deganidir. Bunday vujud xalq qilingan maxluqotlar vujudidir. Har bir yaratilgan, xalq qilinganning o'z haqiqati bor.

Ya'qubi Charxiy "agar sendan, shaqovat (badbaxtlik) nima, deb so'rasalar, Allohni unutish va o'zi bilan ovora bo'lib qolish" -deydi. Shaqovat bu shumlikdir. Yusuf Hamadoniy fikricha, "badbaxtlikning urug'i ilohiy ilmga zid bo'lgan g'aybiy narsalarni taftish qilishdir"[9] - deydi.

Allohni tanishlik, vahdoniyat (yakka, yagonalik)ni anglash, unga ibodat qilish, xulqlanish, ilm olish, halol rizq topish, halol mehnat qilish, halol taom bilan taomlanish, yaxshilik talabi bilan yashash, yomonlikdan saqlanish, o'zi, oilasi va jamiyat manfaatlarini uchun kurashish, insoniy ruh talabi bilan bo'lsa, Allohni unutish, unga shirk keltirish, axloqsizlik, ilmni manfaat uchun olish, shariat harom qilgan taomni ist'emol qilish, destruktiv g'oyaga ergashish, farzandlari, oilasi nafaqasini unutish, jamiyatga ziyon keltirish hayvoniy ruh talabi bilan bo'ladi.

Mutasavvif "agar sendan? Vasl nima, deb so'rasalar, Haqning vujud nuriga ko'milish bilan o'zini unutish", degan tasavvufiy xulosani beradi.

Tasavvuf ta'limotida fano maqomidan keyingi martaba vasl hisoblanadi. "Fano" maqomiga erishgan solik Allohning haqligi, ulug'ligi to'g'risidagi fikrga g'arq bo'lib, foni dunyodagi borliq narsalarni unutib yuborgan bo'lsa, "vasl" maqomiga etgan solik esa Allohdan o'zga borliqdan ajralib unga etishgan bo'ladi. Vasl solik Allohdan boshqa hech narsani ko'rmaydi, faqat U bilangina ko'ngildagi sirlarni baham ko'radi. Shuningdek, vasl deganda, banda sifatlarining Haq sifatlarida fano (yo'q) bo'lib ketishiga ham aytiladi.

Ya'qubi Charxiy vujud haqidagi ta'limotini "Risoi abdoliya" ("Haq yo'lining abdollari") risolasida ham maxsus to'xtaladi.

Mutasavvif risolani "dunyo osmonini chiroq - yulduzlar bilan bezagan va ularni shaytonlarga otuluvchi toshlar qilgan, erni esa rasullar, nabiyalar, valiyalar va ulamolar bezab, ular hujjat-u burhon qilish orqali er yuzini zulmat va turli shubha-gumonlardan tozalagan Allohga hamd-u sano" aytilish bilan boshlab, Allohni yaratuvchanligi haqida quyidagi baytni keltiradi:

Seli jo'yho bar murodi o' ravad,
Axtaron zi on son ki xohad u shaved,[10].

Mazmuni

Daryolarning suvlari u istagan tomonga oqadi,
Yulduzlarning soni u nechta desa, shuncha bo'ladi.

Demak, mutasavvif fikricha, Haqning olamga o'z sifatleri bilan tajalliy etishi (ya'ni, borliqni yaratishi)dan maqsad, O'zini O'ziga ko'rsatish irodasidir. Bu bilan quyidagi mashhur hadisi qudsiy mazmuniga ishora qiladi: "Men yashirin xazina edim,tanilishni xohladim".

Tasavvuf ta'limotida Inson "Haqning nusxasi" sanaladi. Kayhon "Olami kabir" (yirik olam), Inson esa "Olami sag'ir" (kichik olam) deb ataladi. Inson va Kayhon o'rtasida uzviy va doimiy robita mavjud. Yirik olam kichik olamni o'z tarkibiga olsa-da, kichik olam yirik olamning ruhidir. Inson ham jismoniy va ham ruhoniyl jihatdan olamga o'xshash.

Tasavvuf mutafakkirlarining kosmologik ta'limoti ("Ofoq va anfas") ga ko'ra odamning suyagi tog'larga, tomirlari daryolarga, terisi va go'shti Yerga, boshi va miyasi samoga, ruhi esa Mutlaq Ruhga o'xshaydi.

Ya'qubi Charxiy fikricha, "Az-Zohir (osmonlar va erdagi dalillar bilan oshkor bo'lgan Zot) va Al-Botin (O'z zoti bilan pinhon bo'lgan Zotki, uning haqiqatini aql yoki gumon bilan topib bo'lmaydi) sifatlaridan maqsad solik, olamda mavjud har bir zarrada ham Uning borligini dalillari bilan ko'rsin va hamma yaratilgan narsalar Unda qoyim ekanligini bilsin."

Olamning zohiru botini insonning zohiru botiniga, olamning bepoyonligi uning xayoliga, yo'qlik uyqusiga, borliq uyg'oqligiga, yilning to'rt fasli inson umrining to'rt davri – bolalik, yoshlik, navqironlik va qarilikka o'xshatiladi. Olamning to'rt unsuri – tuproq, olov, havo va suv inson vujudining tarkibida ham bor: quloq – tuproq, ko'z – olov, burun – havo, og'iz – suv. Demak, inson kichik olam sifatida yirik olamning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ya'qubi Charxiy risolada azaliy va o'tkinchi olamni tahlil qilar ekan, shaklga, o'tkinchi olamga berilmaslik va aldanmaslikka, boqiy olam haqida ko'proq o'ylashga chaqirib, Mavlono Jaloliddin Rumiyni quyidagi baytini keltiradi:

Ey baso, kasro ki surat roh zad,
Qasdi surat kard u barrulloh zad
Toki nafribad shumoro shakli o',
Naqli o' shoyad ba pesh az naqli o', [11].

Mazmuni: kimki suratga aldansa, o'yldan adashadi, suratni maqsad qilsa, Allohdan chetlanadi. Ularning bechora ko'rinishi va shakl-u shamoyili sizlarni aldab qo'ymasin, Ularni uchratishdan oldin ular to'g'risida naql qilingan gaplarni bilgin.

Demak, "vahdat ul-vujud" deganda moddiylikdan, shaklu shamoyildan xoli, munazzah, ammo ana shu O'zi xalq etgan olamlar bilan doimiy birga bo'lgan, bu olamlar mohiyatini qamrab olgan, ularga muhit bo'lgan Zoti pokning yagona vujudi anglashiladi.

XULOSA

Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi tasavvuf falsafasining eng nozik va teran qatlamlarini mujassam etgan bo'lib, u insonning ruhiy kamolot jarayoni, Haqiqatning koinotga bo'lgan munosabati va mavjudotning ilohiy manbadan bosqichma-bosqich zuhur topishini o'ziga xos tarzda sharhlaydi. Charxiy nazarida borliq oddiy moddiy olamning mavjudligi emas, balki ilohiy Haqiqatning tajallisi, ya'ni koinotning ruhiy o'lchovda idrok etiladigan asl mohiyatidir. Uning ta'limotida borliq va yo'qlik, inson va Haqiqat, ruhiy sayr va ilohiy nur singari konseptlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonning o'z mohiyatini anglash yo'lida asosiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Ya'qub Charxiy borliqni tushuntirar ekan, uni avvalo inson qalbida ochiladigan ma'naviy kashfiyot jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, borliqning asl haqiqatini faqat aql bilan emas, balki qalb nuri va ruhiy tajriba orqali anglash mumkin. Shu bois u mavjudotning tashqi shakllaridan ko'ra ichki mohiyatini kashf etishni ustuvor qo'yadi. Bu yondashuv tasavvuf metafizikasining markaziy tamoyillaridan biri bo'lgan vahdat ul-vujud g'oyasini chuqur va hayotiy mazmunda ochib beradi. Charxiy qarashlarining eng muhim jihati shundaki, u borliqni faqat ilohiy haqiqatning jilvasi sifatida emas, balki insonning kamolot yo'lida zarur bo'lgan ruhiy darajalar tizimi sifatida talqin qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ya'qub Charxiy ta'limoti nafaqat tasavvuf falsafasi tarixida, balki bugungi zamonaviy tafakkur rivojida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning borliq haqidagi qarashlari insonning ma'naviy uyg'onishiga, ruhiy barqarorlikka erishishiga, ichki olamni muvozanatga keltirishiga xizmat qiluvchi universal g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Bugungi globallashtirish davrida insonning o'zini anglash, ruhiy bo'shliqlarni to'ldirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash kabi masalalar tobora keskinlashib borayotgan bir paytda, Charxiy qarashlarining dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ya'qub Charxiy ta'limotidagi borliq nazariyasi tasavvuf falsafasining murakkab, ammo nihoyatda boy va chuqur metafizik merosini tashkil etadi. Bu nazariya insonning o'z mohiyatiga qaytishini, Haqiqatni qalban anglashni, borliqning ilohiy mohiyatini kashf etishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Mutafakkirning borliq haqidagi qarashlarini tizimli o'rganish, ularni boshqa tasavvufiy maktablar bilan qiyoslash va zamonaviy falsafiy tahlillar bilan uyg'unlashtirish ilmiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqotning nazariy va amaliy qiymatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: Sharq. 2003.
2. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. -T.: Adolat. 2001. –20 b.
3. Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi. – T.: Yosh avlod matbaa. – B. 38
4. Ibn Arabiy. Ar-Risolat ul vujudiyya. // tarj. Boltaev A. – B. 38.
5. Ya'qubi Charxiy. Risolai havriyya. Muhammad Nazir Ranjxo. Kandiyon, 2009. – B. 185.
6. Ya'qubi Charxiy. Risolai qudsiya. – B. 74.
7. Ya'qubi Charxiy. Sharhi Asmul husna. – B. 173.

8. Xojagiy Ahmad Kosoniy. Risola - e vujudiya. – 3 v.
9. Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezoni (Rutbat ul-hayot). // tarj. Sayfiddin Sayfulloh, Nodirxon Hasan.- T.: Movarounnahr, 2018. - B. 27.
10. Ya'qubi Charxiy. Risolai abdoliya. – B. 1.